

## BOHLANG'ICH SINFD A O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

**Otaxonova Sumbula Xudayor qizi**

*Chirchiq Davlat pedagogika univesiteti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Samardinova Sabrina Muxiddin qizi**

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarning qiziqishini, ta'lim sifatini oshirish, mustaqil o'z ustida ishlashi, o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.*

**Kalit so'zlar:** *Zamonaviy texnologiyalar, sifatli ta'lim, mustaqil o'rganish, bilim.*

XX va XXI asr boshlaridan internet, zamonaviy texnikalar rivojlana boshladi. Hozirgi zamonda yosh avlodni mukammal bilimga erishish, o'z ustida ishlashga, atrof – muhitdagi balki jahon yangiliklari, fanga doir o'zgarishlar va ko'p ma'lumotlarni egallashga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kata axamiyatga ega.

Nafaqat yosh avlod balki butun insonlar hayoti zamonaviy texnologiyalar (masalan: telefon, kompyuter bilan bog'lanib qoldi). Pedagoglarimiz ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars jarayonlarini mazmunli, sifatli va qiziqarli tarzda o'tkazib kelmoqda. Zamonaviy pedagoglarimiz telefon va kompyuter orqali o'quvchilarga slaydlar, vidiorolik, multimedialar, ko'rgazma qurollari va rasmlar bilan yularning qiziqiqlarini oshirib dars jarayonlarini o'tkazmoqdalar. Zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarni o'z ustida ishlashga, nutqiini va fikrini keng muhokama qilib o'rganishga, bilimlarini almashishga asos bo'ladi. O'qituvchi bita mavzuni olib uni gapirib berib, savol-javoblar bilan, turli xil qiziqarli o'yinlar yoki shu mavzuga doir multimediyalar qo'yib berib o'tsa o'quvchilarning qiziqishi ortadi va dars jarayonlari qiziqarli o'tadi. Boshlang'ich sinf "Tarbiya" fanida yaxshilik va yomonlik haqida aytib o'tilgan shu mavzuni o'qituvchi gapirib berib emas undan tashqari turli hikoya, ertaklar aytib yoki multfilmlardan misol keltirib masalan "Tulki va arslon" multfilmlarini ko'rsatib, xulosani har bir o'quvchidan so'rab yana turli misollar, multfilmlar va ertaklar uyga vazifa berib o'tilsa o'quvchilarning darsga, o'qishga qiziqishi ortadi.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar va turli metodlarni o'quv jarayonida foydalanishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Masalan matematika darsini olaylik, faqat mavzuni o'qituvchi tushuntiradi o'quvchilar esa misol – masalalar yechib dars jarayonini o'tkazib kelar edilar, lekin hozirgi kunga kelib mavzuni qisqacha tushuntirib o'quvchilarni guruhlarga bo'lib misollarni taqsimlab "Qaysi guruh tez va to'g'ri yechadi" deya o'quvchilarning tezligi, chaqqonligi va har ishda ilg'or bo'lishga o'ndaydi.

Misollarni har bir o'quvchini chiqarib misollar o'zi tuzib partadoshi u misollarni yechish orqali mavzularni mustahkamlash, yoki  $2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 = 4$  ( $2 + 2 \cdot 2 \cdot 2 = 4$ ) ko'rinishidagi misollarni slaydlar bilan taxlab o'quvchilarni mavzuni o'rganishda yangilik yaratadi.

Masalan 1-sinflar ucun berilgan mashqlarni bajarishga quyidagicha qo'llash mumkin .  
Yozuv ekranda ko'rsatadi . O'quvchilar tushurib qoldirgan harfni topishadi .

Uy hayvonlari : mush.k, toshba.a, s.gir, .chki.

Yovvoyi hayvonlar: a.iq, b.ri, tul.i .

So'ng bu so'zlar orqali gaplar tuzish yoki bu hayvonlarning shox , tiyoqlari va quloqlarini sanash topshirig'I beriladi.

2-sinf ona tili fanidan "X va H tovushlarning talaffuzi va imlosi " mavzusini olaylik .  
82-mashqni rasmda ko'rsatilganlar nomini to'g'ri aytin .Mevalar yoki narsalar rasmi ko'rsatiladi va ulardan x va h tovushlari tushurib qoldirib qolgan so'zlar yozilgan bo'ladi.

.urmo(xurmo), .ovli(hovli), .iyobon (xiyobon) , .ayvonlar (hayvonlar) .

Shu so'zlarga o'qituvchi she'r to'qib unga video yasab raqs elementlari bilan bolajonlar bilan bajarsa ham so'zlar esida qoladi ham lirik chekinish shunda bolajonlar dam oladi .

Xurmo tushdi tap-tap

Voy bolalar chopilar

Hovlidagi bolalar

Terilar tap-tap.

3-sinf o'quvchilari uchun unli va undosh tovushlarni farqlash va ular haqidagi bilimlarni mustahkamlash maqsadida qo'llasa bo'ladi. Ekranda unli harflar turli orqali ko'rsatiladi undan keyin shu unli yo undosh harfga o'quvchilar 3-guruhga bo'linib ;

1-guruh so'zlar aytadi ,

2-guruh shu so'zlarga gaplar misol keltiradi ,

3-gurug gaplardan matn hosil qiladi.

Interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan , zamonaviy texnikalardan (telefon,kompyuter,radio,televidniya) foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikr bildirishga , mustaqil izlanishga va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi . Demak o'quvchilarga gaprib emas ko'rsatish ,o'qitish metodlaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qaysidir o'quvchi ko'rib , bazilari ewtib yoki bazilar o'qib tez yodida saqlaydi , shuning uchun o'qituvchi vaxtni to'g'ri belgilab olishi har bir o'quvchi bilan shug'ullanishi kerak.

Ta'limga oid multfilmlarga qo'yiladigan asosiy talablar :

1. Multfilm o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi;
2. Mazmun-mohiyati mavzuga mos bo'lishi ;
3. Qisqa va mazmunli bo'lishi;
4. Ham taebiyaviy ham ta'limiy bo'lishi;
5. Multfilmning ahamiyati belgilanishi lozim.

Ta'limga oid tuli o'yinlarga ham o'quvchilarning ongini shakllantirishga kata hissa qo'shadi. O'yinlar orqali bolalarni mavzularni tez oson o'rgatish mumkin.

Ta'limga oid turli o'yinlarga quyidagi talablar quyidagilar:

- a) Mavzuga mos o'yinlar;
- b) Qisqa vaxt mobaynidagi,lekin sifatli o'yinlarni tanlash;
- c) Yuqorida aytganimizdek talimiy ham tarbiyaviy bo'lishi;

d) O'yinlarni o'tkazishning maqsadi va ahamiyatini belgilash kerak.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars jarayonini o'tkazishda o'quvchi dastlab quyidagi omillarni belgilab olishi kerak:

- Interfaol metodlar;
- Ta'limiy o'yinlar ;
- O'qitish metodlari;
- O'quv materiallarini tayyorlash;
- Slaydlar , multimediyalar va rasmi diktantlar;
- Ko'rgazma qo'rollari;
- O'quvchilar bilan ishlash ;
- O'zaro muhokama va bahslar;
- O'quvchilarni darsga qiziqishini ortirish.

Yuqoridagi berilgalardan foydalanib pedagoglarimiz dars o'tsa ta'lim sifati O'zbekistonda rivojlanadi . Boshqa davlatlar dars o'tish metodlaridan biz ham xulosa chiqarib ,ta'limga biroz o'zgarish kirib , o'quvchilarni erkin fikr bildirishga yo'l berib ularning qiziqishini ortirib dars jarayonlari tashkil etsak bizning ta'limda ham kata yutuqlarga erishsa bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Eshmuxammedov R. "O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogic texnologiyalarning qo'llash uslubiyati. T:RBIMM,2017 -68-69-bet
2. Islom karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish" 15bet  
<https://kun.uz/uz/news/2019/11/22>